

## ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OBRAZLI FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**Esayeva Dlaferuz Azamat qizi,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti,  
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi (70110701)*

*Ilmiy rahbar: K.Mavlonova,  
ped.f.d. (DSc), professor*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 5-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning obrazli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, metodik tizimi va tajriba-sinov samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda obrazli fikrlashning psixologik, lingvistik, didaktik va estetik asoslari ko‘p fanli integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tajriba-sinov ishlari natijasida tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 34,8 balldan 54,6 ballga ko‘tarilgani va yuqori darajadagi o‘quvchilar ulushi 10 foizdan 36,7 foizga yetgani aniqlangan. Maqolada obrazli fikrlashni shakllantirish uchun interfaol metodlar, mashq daftari va kompleks baholash mezonlaridan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** obrazli fikrlash, ona tili ta’limi, 5-sinf, interfaol metodlar, tajriba-sinov, metodik tizim, baholash mezonlari.

**Abstract.** This article covers the theoretical-methodological foundations, pedagogical system, and experimental effectiveness of developing figurative thinking skills among 5th-grade students in mother tongue lessons. The psychological, linguistic, didactic, and aesthetic bases of figurative thinking are analyzed from an interdisciplinary perspective. Experimental results showed that the average score of students in the experimental group rose from 34.8 to 54.6 points, while the proportion of high-achieving students increased from 10% to 36.7%. The article substantiates the necessity of using interactive methods, workbooks, and complex assessment criteria for developing figurative thinking.

**Keywords:** figurative thinking, mother tongue education, 5th grade, interactive methods, experimental study, methodological system, assessment criteria.

**Аннотация.** В данной статье освещаются теоретико-методологические основы, методическая система и эффективность опытно-экспериментальной работы по развитию навыков образного мышления учащихся на уроках родного языка в 5-м классе. В исследовании психологические, лингвистические, дидактические и эстетические основы образного мышления проанализированы с позиции междисциплинарной интеграции. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что средний показатель учащихся экспериментальной группы повысился с 34,8 до 54,6 балла, а доля учащихся с высоким уровнем развития образного мышления увеличилась с 10 % до 36,7 %. В статье обоснована необходимость использования интерактивных методов, рабочих тетрадей и комплексных критериев оценивания для формирования образного мышления учащихся.

**Ключевые слова:** образное мышление, обучение родному языку, 5-й класс, интерактивные методы, опытно-экспериментальная работа, методическая система, критерии оценивания.

**Kirish.** Bugungi ta’lim jarayonining ustuvor vazifasi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanmay, ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, nutqiy faollik, estetik idrok hamda obrazli tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, ona tili ta’limi bu jarayonda markaziy ahamiyat kasb etadi. Chunki ona tili fani o‘quvchining nafaqat grammatik savodxonligini, balki tafakkur madaniyatini, voqelikni

anglash va uni soʻz orqali ifodalash, badiiy-estetik munosabat bildirish salohiyatini ham rivojlantiradi.

Obrazli fikrlash – bu insonning voqelikni mantiqiy formulalar orqali emas, balki aniq obrazlar, tasavvurlar va manzaralar yordamida idrok etish hamda qayta ishlash jarayonidir. U oʻquvchining tasavvur doirasini kengaytiradi, borliqni turli belgi, timsol, metafora, tasviriy ifoda va assotsiatsiyalar orqali anglashiga yordam beradi. Bunday fikrlash shakli oʻquvchining faqat qoidalarni bilishi bilan emas, balki soʻzning maʼno nozikliklarini sezishi, matndagi badiiy-estetik qatlamni idrok qilishi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, 5-sinf oʻquvchilarida obrazli fikrlash koʻnikmasini shakllantirish masalasi faqat metodik muammo emas, balki oʻquvchining shaxs sifatida kamol topishi, nutqiy salohiyati, estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan bevosita bogʻliq pedagogik masaladir. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 5-sinf oʻquvchilari boshlangʻich taʼlimdan umumiy oʻrta taʼlimning keyingi bosqichiga oʻtish davrida boʻlib, aynan shu yoshda ularning tasavvuri faol, matnlarni emotsional qabul qilish qobiliyati yuqori boʻladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ona tili taʼlimida obrazli fikrlashning umumiy nazariy asoslari mavjud boʻlsa-da, aynan 5-sinf ona tili darslarida bu koʻnikmani rivojlantirishga qaratilgan yaxlit metodik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan (Gʻulomov, 1992; Mahmudov, 2007; Qosimova va boshq., 2009). Shu sababli mazkur maqolada mavjud ilmiy qarashlar asosida amaliy-metodik yondashuv ishlab chiqish va uni tajriba-sinov orqali asoslash maqsad qilingan.

Tadqiqot maqsadi: 5-sinf ona tili darslarida oʻquvchilarning obrazli fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslash.

Tadqiqot vazifalari: (1) obrazli fikrlash koʻnikmasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish; (2) 5-sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar ishlab chiqish; (3) tajriba-sinov ishlari oʻtkazish va natijalarni tahlil qilish.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda quyidagi ilmiy-metodik metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil (pedagog, psixolog va metodist olimlar asarlari oʻrganildi); taqqoslash metodi (anʼanaviy darslar bilan obrazli fikrlashga yoʻnaltirilgan darslar qiyoslandi); kuzatish metodi (oʻquvchilarning faoliyati kuzatildi); pedagogik tajriba-sinov metodi (ishlab chiqilgan metodik tizim sinab koʻrildi); tahlil va umumlashtirish metodi (natijalar qayta ishlandi).

Tajriba 2024–2026 oʻquv yillarida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻtkazildi. Ishtirokchilar tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhiga (30 nafar) ajratildi. Baholash 65 ballik kompleks mezon asosida amalga oshirildi. Dastlabki holat muvozanatini taʼminlash uchun aniqlovchi bosqich natijalari (tajriba guruhi: 34,8 ball; nazorat guruhi: 34,1 ball) qiyoslandi va guruhlar oʻrtasida statistik jihatdan sezilarli farq yoʻqligi tasdiqlandi.

Asosiy metodik vosita sifatida “Obrazli tafakkur – nutq jilosi” nomli mashq daftari ishlab chiqildi. Mazkur mashq daftari uch bobdan iborat: birinchi bobi “Mo‘jizalar olami” (bahor matnlari, rang tasvirlari, kod yechish, sinkveyn va rasm asosida matn tuzish topshiriqlari), ikkinchi bobi “Galaktikaga sayohat” (fantastik sayyora yaratish, afsona to‘qish, motivatsion matn yozish, ijtimoiy model ishlab chiqish topshiriqlari). Bu tuzilma obrazli fikrlashni turli kognitiv va estetik yo‘nalishlarda rivojlantirish imkonini beradi. “Orzular qanotida” nomli uchinchi bob mashq daftarining yakunlovchi qismi sifatida o‘quvchilarning obrazli fikrlash ko‘nikmalarini mustaqil ijodiy faoliyat orqali mustahkamlashga, shuningdek, shaxsiy dunyoqarash va kelajak tasavvurlarini til vositalari yordamida ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu bobda kognitiv va affektiv jarayonlarning uyg‘unligi ta‘minlanadi: o‘quvchi nafaqat til birliklaridan foydalanadi, balki o‘z his-tuyg‘ulari, orzulari va hayotiy qadriyatlarini badiiy shakllarda ifodalashni o‘rganadi.

**Natijalar.** Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik o‘quvchilar matnda nima haqida so‘z borayotganini aytib bera oladi, lekin obrazli birlikning nima uchun qo‘llanganini izohlashda qiynaladi. Masalan, “quyoshning iliq nurlari yer yuzini mehr bilan silaydi” iborasidagi shaxslantirishni tushuntirish vazifasida ko‘pchilik “quyosh silolmaydi” deb quruq xabar bilan cheklanib qoldi. Ranglar bilan bog‘liq topshiriqlarda javoblar predmetli bo‘ldi: ko‘k rang – “osmon”, yashil – “daraxt”, sariq – “quyosh” tarzida ularning hissiy-estetik qirralari e‘tibordan chetda qoldi.

Shakllantiruvchi bosqichda mashq daftarining sakkiz yo‘nalishi izchil tatbiq etildi: (1) matn tahlili va shaxslantirish; (2) badiiy idrok va munosabat; (3) mantiqiy-kreativ kodlash; (4) fazoviy tasavvur va ixtirochilik; (5) mifologik va estetik tafakkur; (6) psixologik va obrazli tasvir; (7) ijtimoiy modellashtirish; (8) strategik rejalashtirish. Har bir yo‘nalishda o‘quvchilarning bosqichma-bosqich reproduktiv darajadan ijodiy darajaga o‘tishiga yo‘naltirilgan topshiriqlar qo‘llandi.

Yakuniy bosqichdagi miqdoriy natijalar quyidagicha bo‘ldi: tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 34,8 balldan 54,6 ballga yuksaldi (o‘sish: +19,8 ball); nazorat guruhida esa 34,1 balldan 42,3 ballga ko‘tarildi (o‘sish: +8,2 ball). Tajriba guruhida yuqori daraja (55–65 ball) 10 foizdan 36,7 foizga yetdi; past daraja (0–19 ball) 16,7 foizdan 0 foizgacha tushdi.

Guruh	Bosqich	Yuqori (55-65 b.)	O‘rta (35-54 b.)
Tajriba	Boshida	3 nafar (10%)	9 nafar (30%)
Tajriba	Oxirida	11 nafar (36,7%)	15 nafar (50%)
Nazorat	Boshida	3 nafar (10%)	10 nafar (33,3%)
Nazorat	Oxirida	6 nafar (20%)	13 nafar (43,3%)

*1-jadval. Tajriba va nazorat guruhilari bo‘yicha obrazli fikrlash ko‘nikmasi darajalari*

Sifat tahlili o'quvchilarning yozma nutqida uchta muhim o'zgarishni ko'rsatdi. Birinchidan, matnlarda sifatlash, qiyos va jonlantirishlar soni ko'paydi. Ikkinchidan, o'quvchilar voqeani oddiy bayon qilishdan ko'ra kayfiyat va munosabatni ifodalashga intildilar. Uchinchidan, matnlarning kompozitsion izchilligi yaxshilandi. Masalan, dastlabki bosqichda "Bahor keldi. Gullar ochildi. Qushlar uchdi" kabi qisqa xabarlar ko'p bo'lgan bo'lsa, yakuniy ishlarda "Bahor yer yuziga sekin qadam qo'ydi, daraxtlar oq libosga burkandi, shabada esa gullar orasida quvnoq bola kabi yugurdi" kabi badiiyoq ifodalar paydo bo'ldi.

Ranglar yo'nalishida ayniqsa sezilarli sifat o'zgarish kuzatildi. Shakllantiruvchi bosqichdan so'ng tajriba guruhi o'quvchilari ko'k rangni "cheksiz orzu", yashil rangni "yangi hayot", sariq rangni "iliq xotira", binafsha rangni "sirli kecha" kabi obrazli ifodalar bilan sharhlay boshladilar. Bu sifat o'zgarishi o'quvchilarning rangni oddiy belgi emas, ma'no va hissiyot tashuvchisi sifatida qabul qila boshlaganini ko'rsatadi.

Fazoviy tasavvur va ixtirochilik yo'nalishida tajriba guruhi o'quvchilarining eng yuqori faolligi kuzatildi. Dastlabki javoblarda sayyora tavsifi "u katta", "u qizil", "u yerda odamlar bor" kabi sodda shaklda bo'lgan bo'lsa, keyingi ishlarda "Sokinor sayyorasi", "Nurafshon vodiysi", "tovushsiz yomg'irlar", "fikr bilan harakatlanadigan kema" kabi original ifodalar paydo bo'ldi.

**Muhokama.** Olingan natijalar obrazli fikrlashni rivojlantirishda maxsus metodik tizim samaradorligini tasdiqlab, bir qancha muhim pedagogik xulosalarga asos bo'ldi.

Birinchidan, on tili ta'limida "grammatika uchun grammatika" tamoyilidan voz kechib, amaliy-obrazli yo'nalishni kuchaytirish zarurligi aniqlandi. O'zbek metodikasida A.G'ulomov (1992), N.Mahmudov (2007), S.Matchonov va boshq. olimlar tomonidan matn ustida ishlashning ahamiyati ta'kidlangan. Mazkur tadqiqot bu xulosani tajriba-sinov orqali ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, til birliklarini badiiy matn kontekstida o'rganish, matnni tahlil qilish va obrazli ifodalardan mustaqil foydalanish o'quvchining nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, 5-sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari (ko'rish orqali qabul qilish, hissiy sezgirlik, voqeani hikoya qilishga intilish, yangi so'zlarni faol o'zlashtirish) obrazli fikrlashni shakllantirish uchun qulay zamin yaratishi aniqlandi. Bu xulosalar L.Vigotskiyning "ichki nutq" nazariyasi (1934), J.Brunerning obrazli bosqich konsepsiyasi (1966) hamda V.A.Suxomlinskiyning tafakkurni tarbiyalash g'oyasi bilan hamohangdir.

Uchinchidan, baholash tizimining to'g'ri qurilishi muhim ahamiyatga ega. 65 ballik kompleks mezon an'anaviy "to'g'ri-noto'g'ri" yondashuvidan farqli ravishda o'quvchining assotsiativ boyligini, detalni ko'rish qobiliyatini, qiyoslash va majozni anglash darajasini, hissiy ifodalash malakasini hamda kompozitsion tafakkurini alohida baholash imkonini berdi. Bu yondashuv kelgusida ona tili darslarida ijodiy kompetensiyani baholash uchun metodologik asos bo'la oladi.

Tadqiqotda ba'zi metodik qiyinchiliklar ham aniqlandi: ayrim o'quvchilar obrazli fikrlashni cheksiz fantaziya deb tushunib, matn mantiqidan uzoqlashdi. Bunday holatlarda "obrazlilik va mantiqiy izchillik bir-birini to'ldiradi" tamoyiliga tayangan qo'shimcha ko'rsatmalar berish samarali bo'ldi. Shuningdek, past darajadagi o'quvchilar uchun "so'z banki", tayanch savollar va bosqichli yordam tizimi ayniqsa samarali natija berdi.

Shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi raqamli tengsizlik ham e'tiborga molik omil bo'lib qoldi. Texnik vositalar yetarli bo'lmagan muhitlarda rasm, xarita va jismoniy narsalar asosidagi topshiriqlar raqamli vositalar bilan teng samaradorlikni ta'minladi, bu esa metodikaning moslashuvchanligi va universalligini isbotladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Ona tili ta'limida obrazli fikrlash ko'nikmasini shakllantirish o'quvchini so'zning tashqi shakli emas, balki ichki ma'no qatlamlarini, ramziy va ko'chma mazmunini anglashga yo'naltiradigan muhim pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. U psixologiya, lingvistika, adabiyotshunoslik va metodika fanlarining kesishmasida shakllanadi.

2. 5-sinf o'quvchilarining yosh-psixologik xususiyatlari obrazli fikrlashni shakllantirish uchun qulay bosqich ekanligini tasdiqlaydi: bu davrda kuzatuvchanlik, qiziqish, voqea-hodisani hikoyalashga intilish va rasm asosida tasavvur hosil qilish kuchli bo'ladi.

3. "Obrazli tafakkur – nutq jilosi" mashq daftari va 65 ballik kompleks baholash mezoni asosida tashkil etilgan metodik tizim samaradorligi tajriba-sinov bilan tasdiqlandi. Tajriba guruhida o'rtacha ball 34,8 dan 54,6 ga ko'tarildi; yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 10 foizdan 36,7 foizga yetdi.

4. Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, rasm asosida matn, jonlantirish, jumlaning davom ettirish, rolli vaziyatlar), tizimli mashqlar va refleksiya bosqichi birgalikda qo'llanilganda obrazli fikrlash faqat badiiy ko'nikma emas, balki kommunikativ, tarbiyaviy va kognitiv kompetensiyalar yig'indisiga aylanadi.

5. Ona tili darslarida obrazli fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi tayyor javob talab qiluvchi emas, balki o'quvchini kuzatishga, his qilishga, qiyoslashga va mustaqil matn yaratishga yo'naltiruvchi tashkilotchi rolini egallashi zarur. "Bu ifoda qanday kayfiyat uyg'otadi?", "Muallif nega aynan shu obrazni tanlagan?", "Bu holatni boshqa qanday obraz bilan ifodalash mumkin?" kabi savollar obrazli tafakkurni faollashtiruvchi asosiy vositadir.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu metodikani boshqa sinf darajalari va fanlararo integratsiya kontekstida sinab ko'rish, shuningdek, raqamli vositalar (Canva, Padlet, Google Jamboard) bilan boyitish tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov, A. (1992). Ona tili o'qitish prinsiplari va metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
2. Mahmudov, N. (2007). O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

3. Qosimova, K., Matchonov, S., G'ulomova, X., Yo'ldosheva, Sh., Sariyev, Sh. (2009). Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Nosir.
4. Mavlonova, K.M., Hakimova, N.S., Siddiqov, M.R., Qo'ldosheva, S.H. (2024). Ona tili. 5-sinf. 1-qism. Toshkent: Novda Edutainment.
5. Mavlonova, K.M., Qo'ldosheva, S.H., Hakimova, N.S., Siddiqov, M.R. (2024). Ona tili. 5-sinf. 2-qism. Toshkent: Novda Edutainment.
6. Bruner, J.S. (1966). Toward a Theory of Instruction. Cambridge, Mass.: Belknap Press of Harvard University Press.
7. Vygotsky, L.S. (1934). Thinking and Speech. Moscow. [Ingliz tiliga tarjima: Kozulin, A., 1986. MIT Press.]
8. Piaget, J. (1950). The Psychology of Intelligence. London: Routledge and Kegan Paul.
9. Сухомлинский, В.А. (1982). Сердце отдаю детям. Минск: Народная асвета.
10. Yo'ldoshev, M. (2007). Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent: Fan.
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020, 23-sentabr). O'RQ-637-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (2022, 28-yanvar). PF-60-son.

